

**“O‘ZBEKISTON VA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI: GEOSIYOSIY  
HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI”****Qodirov Abubakr Nodirxon o‘g‘li***Alfraganus University Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) yo‘nalishi 2 - bosqich talabasi***Egamberdiyev Muzaffar***Ilmiy rahbar: Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkilotidagi ishtiroki, uning mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya va diplomatik aloqalardagi o‘rni yoritilgan. SHHTning xalqaro maydondagi strategik ahamiyati, O‘zbekistonning tashabbuslari hamda tashkilot doirasidagi hamkorlik istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston tashqi siyosatidagi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida SHHTning dolzarbligi ko‘rib chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *SHHT, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, birlik, mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik.*

**Аннотация:** *В статье рассматривается участие Узбекистана в Шанхайской организации сотрудничества, его роль в обеспечении региональной безопасности, экономической интеграции и дипломатических отношениях. Анализируются стратегическое значение ШОС на международной арене, инициативы Узбекистана и перспективы сотрудничества в рамках организации. Также рассматривается актуальность ШОС как одного из важных направлений внешней политики Узбекистана.*

**Ключевые слова:** *ШОС, Центральная Азия, Узбекистан, единство, региональная безопасность, экономическое сотрудничество.*

**Abstract:** *This article discusses Uzbekistan's participation in the Shanghai Cooperation Organization, its role in regional security, economic integration and diplomatic relations. The strategic importance of the SCO in the international arena, Uzbekistan's initiatives and prospects for cooperation within the organization are analyzed. The relevance of the SCO as one of the important directions in Uzbekistan's foreign policy is also considered.*

**Keywords:** *SCO, Central Asia, Uzbekistan, unity, regional security, economic cooperation.*

**KIRISH**

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (qisqachasi: SHHT) - XX asr oxirida tashkil topgan tashkilot hisoblanadi. Hozirda esa, nafaqat Markaziy Osiyo balki butun Yevroosiyo mintaqasida muhim geosiyosiy kuch markaziga aylangan xalqaro tashkilotdir. O‘zbekiston SHHTning asoschilaridan biri hisoblanadi. Ayni damda esa, mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlashga faol hissa qo‘shib kelmoqda. Mazkur maqolada O‘zbekistonning SHHTdagi o‘rni, faoliyati va kelajakdagi istiqbollari ilmiy tahlil qilinadi.

**ASOSIY QISM**

Bugungi davlatlar orasida birlik, barqarorlik va iqtisodiy-siyosiy integratsiyani mustahkamlashga katta e‘tibor berilmoqda. Bunda esa, turli tashkilotlar xizmati samarali

hisoblanadi. Chunki har bir tashkilot faoliyati davomida amalga oshiradigan maqsadlarni aniq belgilab oladi. Masalan, BMT - xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, TDT - turkiy tilli davlatlar o'rtasida siyosiy-iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha maqsadli harakatlanadi. Endi esa, SHHT - xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash, iqtisodiy hamkorlik, madaniy aloqa masalalari uchun xizmat qiladi.

Dastlab, "Shanxay beshligi" deb nomlangan ushbu tashkilotga Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Xitoy va Qirg'iz respublikalari a'zo edi. Bu davr esa, 1996-yilni taqazo etadi. Keyinchalik 2001-yilda O'rta Osiyoning yana bir muhim davlati O'zbekiston a'zoli bilan ushbu tashkilot "Shanxay hamkorlik tashkiloti" deb nomlana boshladi. O'zbekiston 2001-yil 15-iyunda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT)ning asoschilaridan biri sifatida a'zo bo'lgan.

Ya'ni O'zbekiston tashkilotga keyin qo'shilgan emas, balki Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan birga asoschi davlatlar qatorida turadi.

O'zbekiston Shanxay Hamkorlik Tashkilotida faqat mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni emas, balki iqtisodiy taraqqiyot va xalqaro integratsiyani ham faol ilgari surmoqda. SHHTning Toshkent tashabbuslari asosida mustahkamlanishi, nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo davlatlari uchun barqaror taraqqiyot yo'lini ochib bermoqda.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va barqarorligini ta'minlash har bir davlatning muhim va asosiy maqsadidir. Shanxay Hamkorlik tashkilotining ham asosiy maqsadlaridan biri davlatlar orasida iqtisodiy barqarorlik va uzviy aloqalarni ta'minlashdir.

Davlatimiz SHHTga a'zolik bilan bevosita keng qamrovli aloqalarni yanada mustahkamladi. Masalan qo'shni mamlakatlar bilan yanada yaqinlashdi. Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan keng iqtisodiy masalalarda bir-biriga ko'makdosh bo'ldi. Bundan tashqari Xitoy va Rossiya kabi iqtisodiy rivojlanishi yuqori bo'lgan davlatlar bilan yaqinlashdi. Bu jarayon o'z-o'zidan savdo-iqtisodiy aloqalarda takomillashuv jarayonini yuzaga chiqaradi. Rossiya va Xitoy bilan tashqi savdo aylanmasi kengaydi. Eksportda esa paxta, gaz, meva-sabzavot, rangli metallar o'rnini asta-sekin avtomobilsozlik, kimyo va to'qimachilik mahsulotlari egallay boshladi.

Energetika va yoqilg'i-energetika majmuasi uchun harakatlar boshlandi. Ya'ni Xitoy bilan gaz quvurlari (Markaziy Osiyo - Xitoy gaz quvuri) qurilishi va ekspluatatsiyasi.

Rossiya va Qozog'iston orqali neft-gaz transporti loyihalarida hamkorlik masalasi.

Qayta tiklanuvchi energiya loyihalarida (quyosh va shamol elektr stansiyalari) ShHT doirasida sarmoya jalb qilinmoqda.

Yuqoridagi rivojlanishlarga mos ravishta, Transport-logistika rivoji yaxshilanmoqda.

"Bir kamar - bir yo'l" tashabbusi bilan bog'liq loyihalarda ShHT orqali O'zbekiston tranzit salohiyatini oshirdi.

Temir yo'l va avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish, ayniqsa Xitoy - Qirg'iziston - O'zbekiston temir yo'li loyihasi ShHT doirasida muhokama qilinib kelmoqda.

Investitsiyalar oqimi ham anchagina yaxshilandi, masalan:

Xitoy, Rossiya va Hindistondan O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) ko'paydi.

Ayniqsa, kimyo sanoati, energetika, avtomobilsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalarida yangi korxonalar barpo qilindi.

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi ham iqtisodiy tarmoqlarning eng qismidan biri. SHHT davlatlari bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi (meva-sabzavot, g'alla, go'sht va sut mahsulotlari) sezilarli kengaydi. Qishloq xo'jaligida yangi texnologiyalar (Xitoy va Rossiya texnikasi, Hindiston agrar ishlanmalari) keltirildi.

Kun sayin O'zbekistonda sayyohlar soni ortib bormoqda. Turizm va xizmatlar sektori ham o'zida bir qancha muhim jarayonlarni mujassam etyapdi.

SHHT doirasidagi "turizm yili" dasturlari orqali o'zaro turistik oqimni ko'paytirish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston turizm salohiyatini Xitoy, Hindiston, Rossiya va boshqa davlatlar bozorlariga targ'ib qila boshladi.

O'zbekiston SHHT doirasi oddiy ishtirokchi emas balki, faol tashabbuskorga aylangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev ham har bir masalaga o'z fikr-tashabbuslarini bildiradi.

O'zbekiston SHHT sammitlarida mintaqani global transport koridorlariga ulash masalasini ko'p bora ko'targan. Xususan, "Xitoy - Qirg'iziston - O'zbekiston" temir yo'l loyihasi, Transafg'on temir yo'li va "Toshkent - Andijon - O'sh - Ergashtom" yo'nalishlarini rivojlantirishni ilgari surgan. Shu bilan bir qatorda O'zbekiston rahbari "SHHT mintaqaviy transport-logistika kengashi"ni tuzish taklifini ham bildirgan.

SHHT doirasida erkin savdo hududi yoki hech bo'lmaganda bojxona tartiblarini soddalashtirish taklif qilingan.

Elektron savdo (e-commerce) va raqamli iqtisodiyot bo'yicha qo'shma platformalar yaratishni taklif qilgan.

Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qo'shma dastur ishlab chiqishni ilgari surgan.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha SHHT maxsus dasturini ishlab chiqishni taklif qilgan.

Afg'oniston masalasi doimiy muhokamalarda: O'zbekiston SHHT doirasida Afg'oniston bo'yicha alohida ishchi guruh tuzishni taklif qilgan.

Terrorizm, ekstremizm va g'iyohvand moddalar savdosiga qarshi qo'shma markazlar tashkil etishni ilgari surgan.

Talabalar almashinuvi, ilmiy markazlar va "SHHT yoshlar platformasi"ni rivojlantirish taklif qilingan.

Umumiy qilib aytganda, O'zbekiston taklif va tashabbuslari asosan, transport, savdo, energetika, oziq-ovqat xavfsizligi, suv resurslari, innovatsiya va Afg'oniston barqarorligiga qaratilgan.

### XULOSA

SHHT - O'zbekiston iqtisodiyotini mintaqaviy integratsiya jarayoniga yanada chuqurroq bog'lab qo'ydi va ichki islohotlar uchun tashqi turtki bo'lib xizmat qildi. Bugungi globallashuv jarayonida xalqaro tashkilotlarning mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyotdagi roli tobora ortib bormoqda. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) ana shunday xalqaro tuzilmalar sirasiga kiradi. 2001-yilda tashkil topgan ushbu tashkilotning asosiy maqsadlari terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash, shuningdek, iqtisodiy integratsiya, savdo aloqalarini rivojlantirish va madaniy hamkorlikni kuchaytirishdan iboratdir.

O'zbekiston SHHTning muhim a'zosi sifatida tashkilot faoliyatida faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, transport-logistika tizimini rivojlantirish, energetika va savdo sohalarida yangi tashabbuslar bilan chiqmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. - Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti - <https://mfa.uz> (<https://mfa.uz/>)
3. SHHT rasmiy sayti - <http://www.sectsko.org> (<http://www.sectsko.org/>)
4. Rashidov F. Markaziy Osiyo va xalqaro tashkilotlar. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
5. Abdullaev A. Mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlik masalalari. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.